

XORAZM VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar)


2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 538 663,8 mln. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 100 561,6 mln. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 72,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 438 102,1 mln. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 110,5 %) ni tashkil etdi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA TOVAR AYLANMASI HAJMI HAMDA OʻSISH SURʼATLARI

	Jami (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Viloyat	538 663,8	100,5	100 561,6	72,1
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	194 805,2	86,2	82 225,2	68,1
Xiva	17 198,3	112,1	2 088,0	183,1
<i>tumanlar:</i>				
Bogʻot	27 961,9	93,7	121,4	3,8
Gurlan	47 152,7	150,3	676,1	92,2
Qoʻshkoʻpir	21 071,6	104,7	355,7	91,6
Urganch	50 354,9	118,1	6 140,8	2,9 m.
Hazorasp	55 799,4	107,7	2 320,8	128,6
Xonqa	36 783,0	98,2	4 068,8	57,6
Xiva	10 260,5	106,1	106,9	65,6
Shovot	39 712,8	106,6	1 867,3	111,5
Yangiariq	23 305,2	110,9	518,0	118,2
Yangibozor	14 258,3	106,6	72,6	136,3


Dastlabki maʼlumotlar*

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mlrd. soq m)



2020-yilning yanvar oyida viloyatning barcha deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Gurlan tumani, Urganch tumani, Xiva shahri va Yangiariq tumanlarida qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASINING OʻZGARISH SURʼATLARI, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 72,1 % ni tashkil qildi va 100 561,6 mln. soq m ga etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 18,7 % ulushiga toʻgʻri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 438 102,1 mln. soq m ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 10,5 % ga oʻsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,3 % ga teng kelmoqda.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI, % da



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI, % da




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bog'ot (99,6 %), Yangibozor (99,5 %), Xiva (99,0 %) va Gurlan (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (42,2 %), Urganch tumani (12,2 %) va Xiva shahrida (12,1 %) kuzatilgan.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI VA YIRIK KORXONALARNING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

	Yirik korxonalar (mln. soq.m)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln. soq.m)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Viloyat	100 561,6	72,1	438 102,1	110,5
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	82 225,2	68,1	112 580,0	106,9
Xiva	2 088,0	183,1	115 110,3	106,4
<i>tumanlar:</i>				
Bogʻot	121,4	3,8	27 840,5	104,5
Gurlan	676,1	92,2	46 476,5	151,7
Qoʻshkoʻpir	355,7	91,6	20 715,9	105,0
Urganch	6 140,8	2,9 m.	44 214,0	109,0
Hazorasp	2 320,8	128,6	53 478,6	106,9
Xonqa	4 068,8	57,6	32 714,2	107,6
Xiva	106,9	65,6	10 153,6	106,8
Shovot	1 867,3	111,5	37 845,5	106,4
Yangiariq	518,0	118,2	22 787,1	110,8
Yangibozor	72,6	136,3	14 185,7	106,5

HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING JAMI CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da



2020-yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat boʻyicha aholi jon boshiga 291,0 ming. soq.mni tashkil qilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 12,7 % ga koʻpaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida oʻtgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida oʻsish koʻrsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori koʻrsatkichlar Urganch shahri (1 364,2 ming. soq.m), Gurlan (321,6 ming. soq.m) Urganch (257,3 ming. soq.m) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi boʻyicha eng kam koʻrsatkichlar Xiva (71,4 ming. soʻm), Qoʻshkoʻpir (123,9 ming. soʻm) va Yangibozor (165,2 ming. soʻm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu koʻrsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha koʻrinishga ega:

AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Ming. soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Viloyat	291,0	112,7
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	1 364,2	97,0
Xiva	188,2	126,0
<i>tumanlar:</i>		
Bogʻot	172,3	105,0
Gurlan	321,6	168,8
Qoʻshkoʻpir	123,9	117,3
Urganch	257,3	132,1
Hazorasp	227,1	120,7
Xonqa	199,8	110,1
Xiva	71,4	119,0
Shovot	236,5	119,4
Yangiariq	203,4	124,6
Yangibozor	165,2	119,5

Jumladan, 2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 8 344,3 mln. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2020-yil yanvar)

2020-yil yanvar oyida viloyat boʻyicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 118 160,3 mln. soʻmni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga oʻsdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik biznes subyektlari hajmi 2020-yil yanvar oyi yakunlariga koʻra 104 449,1 mln. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % ga oshgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa

88,4 % ni tashkil qilmoqda. Bu koʻrsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bogʻot, Shovot, Qoʻshkoʻpir, Hazorasp, Xiva va Yangiariq tumanlarida (100,0 %) yuqori boʻlgan.

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 11,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (26,3 %) va Urganch shahrida (9,6 %) kuzatildi.

HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO HAJMI

	Jami (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Viloyat	118 160,3	105,2	13 711,3	107,3	104 449,0	104,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	44 544,5	110,8	4 263,1	199,9	40 281,4	105,8
Xiva	6 475,5	105,0	73,7	-	6 401,8	103,8
<i>tumanlar:</i>						
Bogʻot	2 398,4	105,4	-	-	2 398,4	105,4
Gurlan	2 923,0	107,8	2,2	50,5	2 920,8	107,9
Qoʻshkoʻpir	419,9	103,2	-	-	419,9	103,2
Urganch	34 756,5	99,5	9 126,7	86,6	25 629,8	105,0
Hazorasp	2 928,3	103,8	1,1	6,2	2 927,2	104,5
Xonqa	8 142,2	106,3	240,8	220,3 m.	7 901,4	103,1
Xiva	3 295,5	104,0	0,2	-	3 295,3	104,0
Shovot	3 718,9	101,6	-	-	3 718,9	103,6
Yangiariq	2 727,3	104,7	-	-	2 727,3	104,8
Yangibozor	5 830,3	102,5	3,5	-	5 826,8	102,5

HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING OʻZGARISH SURʼATLARI, % da



Ulgurji tovar aylanmasida oʻtgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori oʻsish surʼatlari Urganch shahri (110,8 %), Gurlan tumani (107,8 %) va Xonqa tumanida (106,3 %) qayd etildi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
boʻlimi tel.: (62) 224-65-09